

TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI VA TALABA HAMKORLIGINING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Aliyev Samariddin Murotali o'g'li

*Toshkent davlat texnika universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası assistant
o'qituvchisi*

Qosimjonov Samandar

Toshkent davlat texnika universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida o'qituvchi va talaba hamkorligining psixologik xususiyatlari muammolari shuningdek hamkorlikning ijobiy tomonlari ochib berilgan.*

Abstract. *This article reveals the problems of the psychological characteristics of teacher-student cooperation in the higher education system, as well as the positive aspects of cooperation.*

Kalit so'zlar. *psixologik hamkorlik, ijtimoiy aloqalar, hissiyotlar, motivatsiya, o'zaro ta'sir, rivojlanish usullari, zamonaviy metodikalar*

Keywords: *psychological cooperation, social relations, emotions, motivation, interaction, development methods, modern methodologies*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish zamonaviy kadrlar tayyorlash ta'lim tizimida xususan oliy ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etmoqda shunday ekan bunda pedagoglarning ahamiyati katta chunki aynan ular kadrlarga kerakli ta'lim tarbiyani berib boradilar. Zamonaviy ta'limda esa talaba va o'qituvchi hamkorligi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Asosiy qism. Universitet faqat bilim obe'ktlariga e'tibor qaratishi, o'qituvchilar butun dars vaqtida talabalarning bilim olishiga e'tibor qaratishi, o'zlashtirilishni ta'minlashi vaqtni behuda sarflamasligiga e'tibor qaratishi lozim. Talabalar esa o'zlarining o'qituvchilari bilan ijobiy munosabatda bo'lishi kerak chunki talabalar o'qituvchilarni iliq, foydali shaxs sifatida qabul qilsalar, ularni fanga nisbatan o'qishga nisbatan motivatsiyasi yanada oshib yetuk mutaxasis shaxs sifatida shakllanishi yanada osonlashadi. Shu nuqtai nazardan, ular o'rganish bilan to'liq shug'ullanadilar, g'ayratli bo'ladilar, ijobiy natijalarga erishish uchun qo'llaridan kelganini qiladilar: ular sa'y harakatlarni amalga oshiradilar, yordam so'rashadi, o'zlarini tartibga soladilar va o'zlariga ko'proq ishonch hosil qiladilar.

Talabaning uy vazifasini bajarishi, imtihonlarga sodiqligi darslardagi faolligi ayniqsa ahamiyatga ega. O'z navbatida o'qituvchi ham talabalarga nisbatan adolatli baholash tizimi, motivatsiya, hamkorlik, qiziqtirish usullarini yaxshi bilishi lozim. Adolatli baholash tizimi – bu talabaning o'qishga nisbatan ishonchi shakllantiradi kelgusi ish jarayonida ijtimoiy hayotda adolatli shaxs sifatida shakllanishiga muhim debocha bo'ladi.

Motivatsiya – bu talabani o'qishga nisbatan qiziqishi o'qisa kelajakda qanday ishlar mansab lavozim kutib turganligiga ishonitirishdir.

Hamkorlik – bu o'qituvchi va talaba bir-birini tushunib dars jarayonini olib borishi birgalikda ishlashi va natija ko'rsatishi tushuniladi.

Qiziqtirish usullar – bu yangi metodikalar va zamonaviy usullardan foydalangan holda dars o'tish tushuniladi ya'ni an'anaviy ta'lim shaklidan voz kechgan holda zamonaviy usulda dars o'tish.

O'qituvchi va talaba hamkorlik munosabatlarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki o'qituvchilarning qo'llab-quvvatlashi va g'amxo'rliqi talabalarning faolligini oshirishga xizmat qilishi isbotlandi. Talaba hamkorligi darsdagi ijobiy harakatlar bilan bevosita bog'liqdir. O'qituvchi hamkorligining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat.

1. Talabalarga doimiy ravishda yordam beradigan ta'lim amaliyotlarini aniqlash.
2. Talabalar muvaffaqiyati uchun ma'suliyatni taqsimlash.
3. O'qituvchi va talabalar o'rtasida sog'lom muhitni shakllantirish.

Demak yuqoridagi omillardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki o'qituvchi va talaba hamkorligining psixologik xususiyatlarini ta'minlashda har ikki tomon birdek mas'ul hisoblanadi. Qo'shimcha sifatida shuni aytishimiz mumkinki o'qituvchi hamkorlikni guruhviy ishlash orqali ham shakllantiradi ya'ni jamoaviy ishlash barcha talabalarni birgalikda ishlashga o'rgatish orqali o'quv sifatini oshirish guruh a'zolari bir-birlarini tinglashni va bir-birlariga ishonishni boshlaganlarida, ular yangi g'oyalarga ochiq bo'ladilar va konstruktiv fikr-mulohazalarni qabul qiladilar.

Xulosa xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki bugungi kunda o'qituvchi va talaba hamkorligi muhim, dolzarb masala bo'lib qolmoqda uni yetarlicha o'rganish va rivojlantirish shuningdek amalda tadbiiq etish lozim. Oliy ta'limda o'qituvchi va talaba hamkorligining psixologik xususiyatlari, pedagogik asoslarini o'rganishdan asosiy maqsad talabalarning bilimlarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarini sabablarini va manbalarini tadqiq etish hamda ta'lim jarayonida samaradorligini oshirishning asosiy omillarini aniqlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Perry, N. E., Hutchinson, L., & Thauberger, C. (2007). Mentoring student teachers to design and implement literacy tasks that support self-regulated reading and writing. *Reading & Writing Quarterly*, 23(1), 27–50.
2. Roberts, B. W., & Jackson, J. J. (2008). Sociogenomic personality psychology. *Journal of Personality*, 76(6),
3. Roberts, B. W., Luo, J., Briley, D. A., Chow, P. I., Su, R., & Hill, P. L. (2017). A systematic review of

personality trait change through intervention. *Psychological Bulletin*, 143(2), 117–141.

4.Roorda, D. L., Koomen, H. M., Spilt, J. L., & Oort, F. J. (2011). The influence of affective teacher–student

relationships on students' school engagement and achievement: A meta-analytic approach. *Review of*

Educational Research, 81(4), 493–529.

5.Dembroski, S. M. Weiss, J. L. Shields, S. G. Haynes, & M. Feinleib (Eds.), *Coronary-prone behavior* (pp.

55–69). Springer.

6.Rosenshine, B. (1970). Enthusiastic teaching: A research review. *The School Review*, 78(4), 499–514.

7.Rosenthal, R., & Jacobson, L. (1968). Pygmalion in the classroom. *The Urban Review*, 3, 16–20.

8.Rubie-Davies, C. M. (2007). Classroom interactions: Exploring the practices of high- and low-expectation

teachers. *British Journal of Educational Psychology*, 77(2), 289–306.